FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMAN HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 15 - dekabr 219-11-151-Q/23 Oltiariq tuman hokimligi

Avtomototransport vositalarini yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 15-son, 197-modda) muvofiq hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2021-y, 10-son, 103-modda), Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y, 10-son, 103-modda) asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalarini qo‘llab tumandagi barcha avtomotransport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori rahbarlik va ijro etish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik

ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 13-14-bandlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli avtotransport vositalarining texnik holati tadbirkorlik subyektlari-yuridik shaxslar tomonidan ham tekshirilishi mumkinligi belgilanganligi inobatga olinsin.

3.Tumandagi fermer xo‘jaliklari, korxona va tashkilotlarga qarashli avtomototransport vositalari 2024- yil 1-martdan 30-iyunga qadar texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

Texnik ko‘rikdan o‘tkazish 1-bosqich jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tumandagi tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yukavtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar – bir yilda ikki marta, birinchi marta 1-martdan – 30-iyungacha, ikkinchi marta 1-sentabrdan – 31-oktabrgacha texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish 2-bosqich jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Barcha jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024-yil 1-yanvardan 31-avgust kuniga qadar texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

6. Avtomototransport vositalarining yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish davrida komissiya tarkibiga kiritilgan mas’ul shaxslarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinishi inobatga olinsin.

8. Komissiya zimmasiga:

Texnik ko‘rik davomida belgilangan jadvalga rioya qilish, transport vositalarini texnik ko‘rikka tayyorgarligini, kerakli jihozlarni yetkazib berilishini, tuman mudofaa ishlaribo‘limida ro‘yxatda turuvchi transport vositalariga barcha hujjatlarni rasmiylashtirilganligiga, avtotransport vositalarini texnik pasportlarini, ta’mirga kiritish ro‘yxatlarini, ishga chiqish va qaytishni qayd etish kitoblarini yuritilganligini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish

yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

9. Tumandagi fermer xo‘jaliklari, korxona va tashkilotlar rahbarlariga jadvalda ko‘rsatilgan muddatga qadar avtomototransport vositalarini texnik ko‘rikka tayyorlash va texnik ko‘rik komissiyasiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

10. Tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarning jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtotransport vositalarining texnik holatini tekshirish bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lovlarni undirilishida viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlanadigan ta’riflarga qat’iy amal qilinsin.

11. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022-yil 14-dekabrdagi 328-11-151-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qaror “Davr ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

13. “Davr ovozi” gazetasi (A.Xonkeldiyev)ga 2024-yil avtomotoransport vositalarini yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha qabul qilingan tuman hokimining mazkur qarorini rasmiy e’lon qilinishini ta’minlash hamda belgilangan vazifalarni mazmun mohiyati va maqsadini keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

14. Belgilansinki, mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

15.Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari V.Sodiqov zimmasiga yuklatilsin.

Oltiariq tumani hokimi **Sh.Turdaliyev.**

Oltiariq tuman hokimining
2023-yil 15-dekabrdagi
219-11-151-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Oltiariq tumanidagi mavjud avtokorxona, tashkilot, muassasa, MTP, MMTP, fermer xo‘jaliklari, kichik va xususiy korxonalarga qarashli transport vositalarini yillik texnika ko‘rigidan o‘tkazish

J A D V A L I.

№	Avtoxo‘jalik nomi	Texnika ko‘rigi o‘tkazish sanasi	Texnika ko‘rigi o‘tkazish joyi
1	Oltiariq Taksi Servis MCHJ	01.03.2024	11-Avtosaroyda
2	Nurobod MTP	02.03.2024	Avtoxo‘jalikda.
3	Madad MTP	03.03.2024	Avtoxo‘jalikda
4	Qishloq xo‘jalik kimyo	04.03.2024	Avtoxo‘jalikda
5	Paxta trans servis	06.03.2024	Avtoxo‘jalikda
5	ANK-12	09.03.2024	Avtoxo‘jalikda
7	ATP-11	09.03.2024	Avtoxo‘jalikda
8	FSSK-1 Beton Zavodi	10.03.2024	Avtoxo‘jalikda
9	KMK-1	10.03.2024	Avtoxo‘jalikda
10	Kommunal xo‘jalik korxonasi	11.03.2024	Avtoxo‘jalikda
11	Faxriylar oromgohi	11.03.2024	Avtoxo‘jalikda
12	Qapchug'ay Suvqurilish	13.03.2024	Avtoxo‘jalikda
13	Avtomobil yo‘llar boshqarmasi	14.03.2024	Avtoxo‘jalikda
14	O.M.X.K.X kolleji	16.03.2024	Avtoxo‘jalikda
15	O.K.X	16.03.2024	Avtoxo‘jalikda
16	Gazlashtirish korxonasi	17.03.2024	Avtoxo‘jalikda
17	F.M.Ch.J	22.03.2024	Avtoxo‘jalikda
18	Oltiariq MTP	23.03.2024	Avtoxo‘jalikda
19	Vatanparvar tashkiloti	24.03.2024	Avtoxo‘jalikda
20	Vagonlarni bug‘lab yuvish stansiyasi	25.03.2024	Avtoxo‘jalikda
21	Tuman hokimligi	27.03.2024	Avtoxo‘jalikda
22	Vetenariya bo‘limi	27.03.2024	Avtoxo‘jalikda
23	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	28.03.2024	Avtoxo‘jalikda
24	GNS korxonasi	29.03.2024	Avtoxo‘jalikda
25	Tuman DSI	31.03.2024	11-son ATPda
26	Agrobank	03.04.2024	11-son ATPda
27	Inkassatsiya	03.04.2024	11-son ATPda
28	Ishonch MCHJ	03.04.2024	11-son ATPda
29	Oltiariq DASK	03.04.2024	11-son ATPda
30	Qiziltepa sihatgohi	04.04.2024	11-son ATPda
31	Agrosanoat kolleji	04.04.2024	11-son ATPda

32	Tuman moliya bulimi	04.04.2024	11-son ATPda
33	Arxitektura va qurilish boshqarmasi	05.04.2024	11-son ATPda
34	Turon-2 x/firmasi	05.04.2024	11-son ATPda
35	Jaxongirmirzo sihatgohi	05.04.2024	11-son ATPda
36	Soxibovlar qurilish mantaj MCHJ	05.04.2024	11-son ATPda
37	Davlat Ta’minot Savdo	06.04.2024	11-son ATPda
38	Oyxon-Oygul k.k	06.04.2024	11-son ATPda
39	Mirxoji Akbarxoji F/X	06.04.2024	11-son ATPda
40	Ubaydullo Nishonov f.x	07.04.2024	11-son ATPda
41	Oltiariq Olita Fayz urug‘chilik f-x	07.04.2024	11-son ATPda
42	Sojida Jo‘rayeva f.x	07.04.2024	11-son ATPda
43	To'lqinboy f\x	08.04.2024	11-son ATPda
44	Xayrullo Baxrom Boymatov f\x	08.04.2024	11-son ATPda
45	Abduvalixoji f\x	08.04.2024	11-son ATPda
46	Axlidin Oltiariq Trans MCHJ	10.04.2024	11-son ATPda
47	T.Parmonov f\x	10.04.2024	11-son ATPda
48	Omonjon Xaj f\x	10.04.2024	11-son ATPda
49	Abduraxmon f\x	11.04.2024	11-son ATPda
50	Mamatqulxoji obod f\x	11.04.2024	11-son ATPda
51	«Uktam» XICH Savdo Firmasi	11.04.2024	11-son ATPda
52	Taraqqiyot MCHJ	12.04.2024	11-son ATPda
53	Oltiariq Inter super i\ch korxonasi	12.04.2024	11-son ATPda
54	Keng Ko‘l Trans MCHJ	12.04.2024	11-son ATPda
55	Qurilish loyiha ekspertiza sinov MCHJ	13.04.2024	11-son ATPda
56	Istiqlol Oltiariq Servis MCHJ	13.04.2024	11-son ATPda
57	Oltiariq ko'rkam bog‘lar k\k	13.04.2024	11-son ATPda
58	Nodir Xamzaobod f\x	14.04.2024	11-son ATPda
59	Saidxon Malxam nuri x\k	14.04.2024	11-son ATPda
60	Mariyam-Matyaqubova f\x	14.04.2024	11-son ATPda
61	Oysuluv-Tojida f\x	15.04.2024	11-son ATPda
62	Umid Xudoberdiyev f\x	15.04.2024	11-son ATPda
63	Qurilish Injering	15.04.2024	11-son ATPda
64	Fayz Binokor Grand X/K	17.04.2024	11-son ATPda
65	Obod Oltiariq sevinchi f\x	17.04.2024	11-son ATPda
66	Muzaffar Nurli kelajak f\x	17.04.2024	11-son ATPda
67	Fidels Trade Plyus MCHJ	18.04.2024	11-son ATPda
68	Maftuna Azizbek MCHJ	18.04.2024	11-son ATPda
69	Muxiddin-Poloson fayz MCHJ	18.04.2024	11-son ATPda
70	Oltiariq Naft va gaz sanoati kolleji	19.04.2024	11-son ATPda
71	Ulug'bek o‘quv markazi	19.04.2024	11-son ATPda
72	Farg‘ona Internatsional trans MCHJ	19.04.2024	11-son ATPda

73	Sanjarbek fayz Oltiariq MCHJ	20.04.2024	11-son ATPda
74	Axmadjon Qodir K.T.I.Ch.K	20.04.2024	11-son ATPda
75	Fayz Binokor Grand X/K	20.04.2024	11-son ATPda
76	Bobur Oltiariq Servis firmasi	21.04.2024	11-son ATPda
77	Oltiariq-Baxmal MCHJ	21.04.2024	11-son ATPda
78	Dom Stroy Invest X/K	21.04.2024	11-son ATPda
79	Kimyo markazi ta’minlash unitar korxonasi	22.04.2024	11-son ATPda
80	Ko'lbo‘yi-Oltiariq X\K	22.04.2024	11-son ATPda
81	Anbarinso	22.04.2024	11-son ATPda
82	Xurshidbek Axmadjon Fayz	22.04.2024	11-son ATPda
83	To‘lqin Oybek Diyor Yulduzi	24.04.2024	11-son ATPda
84	Oltiariq t Bunyod XICHX	24.04.2024	11-son ATPda
85	Saodat x/f	24.04.2024	11-son ATPda
86	Toibjon Oltiariq x\k	24.04.2024	11-son ATPda
87	Quruvchi KTXF	25.04.2024	11-son ATPda
88	Retail Group Fergana	25.04.2024	11-son ATPda
89	Oltiariq Avtoustoz MCHJ	25.04.2024	11-son ATPda
90	Soxib-Sardor Obid Fayz	25.04.2024	11-son ATPda
91	Oltiariq Avto xamkor fayz	26.04.2024	11-son ATPda
92	Zarxal Fayz Kamronbek	26.04.2024	11-son ATPda
93	Oltiariq Ulug‘bek Yulduzi bog‘dorchlik	26.04.2024	11-son ATPda
94	Xoshimjon Nabiyev Chorvachilikf.x	26.04.2024	11-son ATPda
95	Foto Sardor Fayz X/K	26.04.2024	11-son ATPda
96	Karimjon Ganiyev f.x	27.04.2024	11-son ATPda
97	Suv Oqava Servis Butlash	27.04.2024	11-son ATPda
98	Yorkin Kelajak	27.04.2024	11-son ATPda
99	O‘tkir Man Trans MCHJ	27.04.2024	11-son ATPda
100	Regional trans	27.04.2024	11-son ATPda
101	Xakimjon XICHFK	27.04.2024	11-son ATPda
102	Ferari MCHJ	27.04.2024	11-son ATPda
103	Ziyodullo Nurkelajak	28.04.2024	11-son ATPda
104	Mashxurbek Fayz MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda
105	Oltiariq Oil Grant MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda
106	Kavsar Mebel Luks X\F	28.04.2024	11-son ATPda
107	Harakat Fayz MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda
108	Abdullajon Tojix.k	28.04.2024	11-son ATPda
109	Abdulboqi MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda
110	Otabek Asrorbek Servis X\K	28.04.2024	11-son ATPda
111	Shaxrizod-Oltiariq x\k	28.04.2024	11-son ATPda
112	Bobomurod Sardor x.k	28.04.2024	11-son ATPda
113	Vent Mulk Invest MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda
114	Oltiariq-Oygul MCHJ	28.04.2024	11-son ATPda

115	Oxun-Baraka MCHJ	29.04.2024	11-son ATPda
116	Harakat-Baraka Zamin	29.04.2024	11-son ATPda
117	Mexrigiyo Oltiariq	29.04.2024	11-son ATPda
118	Oltiariq bandlikka ko‘maklashish markazi	29.04.2024	11-son ATPda
119	Oltiariq-Osiyo Intertrans sho'ba korxonasi	29.04.2024	11-son ATPda
120	Oltiariq Avto Urgatuvchi MCHJ	29.04.2024	11-son ATPda
121	Oltiariq VOLVO Trans Servis MCHJ	29.04.2024	11-son ATPda
122	Nurli-Kelajak Obod f.x	29.04.2024	11-son ATPda
123	Vaxobjon-Toshpo'lat obod f.x	01.05.2024	11-son ATPda
124	Farg‘ona Yo‘l Qurilish korxonasi	01.05.2024	11-son ATPda
125	Xoshimboy Muxammadyusuf f.x	02.05.2024	11-son ATPda
126	Oltiariq Nabiyev Qodirali f.x	02.05.2024	11-son ATPda
127	Xasanjon x.f	03.05.2024	11-son ATPda
128	VoxobxojiToshpo'lat Obod X/K	03.05.2024	11-son ATPda
129	Obid Avazxon fayz x.f	03.05.2024	11-son ATPda
130	Vest-Mobile Oltiariq MCHJ	04.05.2024	11-son ATPda
131	Z-son xo‘jalik hisobidagi kon xavzasi	04.05.2024	11-son ATPda
132	Ulug‘bek trans Polietilen MCHJ	05.05.2024	11-son ATPda
133	Oltiariq Obod Kelajagi	06.05.2024	11-son ATPda
134	Meva Kapital Baraka MCHJ	06.05.2024	11-son ATPda
135	BIO Al-Farg‘oniyx.k	10.05.2024	11-son ATPda
136	Oltiariq Vxite Gold Tekstili MCHJ	11.05.2024	11-son ATPda
137	Axliddin Oltiariq trans MCHJ	12.05.2024	11-son ATPda
138	Fayziobod Bolalar Sihatgohi	13.05.2024	11-son ATPda
139	Dilshod Oltiariq trans MCHJ	15.05.2024	11-son ATPda
140	Alpomish Omad MCHJ	15.05.2024	11-son ATPda
141	Xamza Sara Mevalar MCHJ	19.05.2024	11-son ATPda
142	CHP dom stroy invest	19.05.2024	11-son ATPda
143	Karvon trans fayz MCHJ	20.05.2024	11-son ATPda
144	Patilaxon fayz f.x	22.05.2024	11-son ATPda
145	Samatov Jonibekobod MCHJ	24.05.2024	11-son ATPda
146	Omad Odiljon bog‘dorchilikf.x	25.05.2024	11-son ATPda
147	Qurvonali Aminjon Asalarichilik f.x	26.05.2024	11-son ATPda
148	Jaxongir Jasurbek fayz dehqon xo‘jaligi	27.05.2024	11-son ATPda
149	Xolmatjon-Tolib f.x	27.05.2024	11-son ATPda
150	Naziralixoji Xoshimov f.x	28.05.2024	11-son ATPda
151	Islombek-Abdulxakov X/K	28.05.2024	11-son ATPda
152	Kraska-Kabel M.Ch.J.	29.05.2024	11-son ATPda

Oltiariq tuman hokimining
2023-yil 15-dekabrdagi
219-11-151-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Oltiariq tumanidagi mavjud avtokorxona, tashkilot, muassasa, MTP, MMTP, fermer xo‘jaliklari, kichik va xususiy korxonalarga qarashli transport vositalarini 2024-yil 2-bosqich texnika ko‘rigidan o‘tkazish

J A D V A L I.

№	Avtoxo‘jaliknomi	Texnika ko‘rik o‘tkazish sanasi	Texnika ko‘rik o‘tkazish joyi
1	Oltiariq Taksi Servis MCHJ	01.08.2024 yil	ATP-11 avtosaroyi
2	Nosirov Baxodir Trans Servis MCHJ	03.08.2024 yil	ATP-11 avtosaroyi
3	Nurafshon-Nurobod MMTP	04.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
4	Far-Madad – Chinor MMTP	05.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
5	Muxandis-Povulg‘on MMTP	07.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
6	Zarbdor-Yangiqurgon MMTP	08.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
7	Sertut-Jurakobod MMTP	10.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
8	Ittifoq Fayz MMTP	14.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
9	Madadkor-Oqbuyra MMTP	15.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
10	Rakobat- Far MMTP	16.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
11	Azimobod-Texnika rivoji MMTP	17.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
12	Burboliq-Paxtaobod MMTP	18.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
13	G‘ayratBirlashgan MMTP	21.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
14	Madadkor-Otaqulov MMTP	22.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
15	Nurobod MTP	24.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
16	Madad MTP	25.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
17	Qishlokxo‘jalikkimyo	26.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
18	Avtomobil yo‘llari boshqarmasi	28.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
19	MPMK-88 avtokorxonasi	28.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
20	GNS. Proparka korxonasi	29.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
21	Faxriylar oromgohi	29.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
22	F.M.Ch.J	29.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda
23	Vatanparvar	30.08.2024 yil	Avtoxo‘jalikda

Oltiariq tuman hokimining
2023-yil 15-dekabrdagi
219-11-151-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Oltiariq tumanidagi mavjud avtokorxona, tashkilot, muassasa, MTP, MMTP, fermer xo‘jaliklari, kichik va xususiy korxonalarga qarashli transport vositalarini 2024-yillik texnika ko‘rigidan o‘tkazish

Komissiyasi tarkibi:

№	Ism, familiyasi	Lavozimi
1.	F.Ismoilov	tuman IIB YXXG boshlig‘i – Komissiya raisi
2	D.Suyarqulov	Oltiariq tuman texnika xolati va agrotexnik tadbirlarni nazorat qilish sho‘basi inspektori – Komissiya ma’sul kotibi
Ishchi guruhi a’zolari		
3	N.Otajonov	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnika bo‘limi muxandisi
4	A.Matisayev	Nurobod MTP muxandisi
5	T.Olimov	ANK-12 avtokorxonasi haydovchisi
6	D.Mavlonov	Tuman tabiatni muhofaza qilish inspetsiyasi bosh inspektori